O‘QITUVCHINING KASBIY VA SHAXSIY SIFATLARI

Xosilova N. Sh.,
GDPI Pedagogika yo‘nalishi 1- kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlari tahlil qilinadi hamda ularning ta’lim jarayoniga, o‘quvchilarning shakllanishiga ta’sirini yoritadi. Maqolada zamonaviy o‘qituvchidan talab etiladigan asosiy kompetensiyalar shahsiy fazilatlar, ularning pedagogik faoliyatidagi roli asoslab berilgan. Shuningdek o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni uning ma’naviy - marifiy missiyasi va barkamol avlodni shakllantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, kasbiy sifatlar, shahsiy fazilatlar, ta’lim sifati, pedagogik kompetensiya metodika, aqliy yondashuv.

Abstract: This article analyzes the professional and personal qualities of a teacher and highlights their impact on the educational process and the formation of students. The article substantiates the main competencies and personal qualities required of a modern teacher, their role in pedagogical activity. It also discusses the role of a teacher in society, his spiritual and educational mission, and his role in the formation of a harmonious generation.

Keywords: teacher, professional qualities, personal qualities, quality of education, pedagogical competence, methodology, intellectual approach.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’lim tizimini takomillashtirish uchun uning samaradorligini oshirish va xalqaro andozalarga moslashtirishga qaratilgan. Bu jarayon albatta ta’lim tizimini sifatli amalga oshirish jarayonida zamonaviy o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy mahoratiga, fazilatlariga bog‘liqdir.

„Biz maktab muammosiga birinchi darajali masala deb qarashni davom ettirishimiz lozim. Maktab faqatgina ta’lim beradigan maskan emas barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur ‘‘.[1]

Bu jarayon o‘qituvchini o‘z xalqining madaniy merosiga hurmat bilan qarashi uni yosh avlodga to‘g‘ri yetkazishga intilishidir. Bunday munosabat o‘quvchilarda milliy g‘urur, vatanparvarlik va o‘zligiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek „Yangi O‘zbekistonning poydevori aynan bilim, ta’lim va tarbiya bo‘lishi bejiz emas. Bugungi globallashuv va texnologiyalar zamonida har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo uning aql - zakovati, ilmli va tarbiyali avlodiga bog‘liq. Qaysi davlatda ta’limga ustuvor e’tibor berilsa u yerda ijtimoy-iqtisodiy rivojlanish, ma’naviy yuksalish va barqarorlik muqarrar bo‘ladi’’. Shaxsan men ham bu fikrlarga qo‘shilaman. Zero har qanday taraqqiyotning asosi - bu ilm. Ilmsiz jamiyat - ildizsiz daraxtga o‘xshaydi, tarbiya esa bu daraxtning

mevasidir. Shu bois biz yangi jamiyatni bunyod etishda eng avvalo insonni tarbiyalash, uni bilim bilan qurollantirishni birinchi o‘ringa qo‘yishimiz kerak.

„Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratayapmiz. Bunda bizning ko‘makchilarimiz miz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir ‘‘.[2]

Ta’lim tizimi har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim soha hisoblanadi. Bu tizimning muvaffaqqiyatli faoliyat yuritishida o‘qituvchilik o‘rni beqiyosdir. Chunki aynan pedagog shahsi, uning bilim saviyasi, didaktik va axloqiy yondashuvi o‘quvchilarning intellektual va ma`naviy shakllanishiga bevosita tasir ko‘rsatadi. Har qanday rivojlangan jamiyatda o‘qituvchi bilim manbai, yetakchi tarbiyachi va jamiyatning intellektual tayanchi hisoblanadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi balki yosh avlodning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi shaxsdir. Uning kasbiy mahorati va shahsiy fazilatlari nafaqat o‘quvchilarning ta’lim olishlarini, balki ularning tarbiyasi va kelajakdagi muvaffaqqiyatini ham belgilaydi. Shuning uchun zamonaviy o‘qitivchidan yuqori darajadagi mas’uliyat, doimiy rivojlanish istagi, o‘zini o‘zi tahlil qilish va insoniy fazilatlar talab etadi.

Bugungi kunda pedagog sohasiga qo‘yilayotgan talablar keskin o‘zgarib bormoqda. Ular nafaqat kasbiy bilim, balki ijtimoiy faollik, psixologik barqarorlik, kommunikativlik va axloqiy fazilatlarni ham o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining kasbiy fazilatlar tushunchasi kasbiy tayyorgarligi va ish tajribasi jarayonida egallangan ko‘plab muhim tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. U o‘qitivchilik faoliyatining samaradorligi va muvaffaqqiyatiga tasir qiladi va kasbiy mukammallikka asos bo‘ladi. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga bo‘lgan talablar ortib bormoqda.

O‘qituvchi o‘z kasbini mukammal bilishi, unda DTS (davlat ta’lim standarti) lariga mos bilim bo‘lishi kerak, chunki bu standartlar o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar darajasini belgilaydi. O‘qituvchi aynan shu mezonlar asosida dars olib borishi, ta’lim sifatini ta’minlashi va o‘quvchilarning zamonaviy talablar darajasida bilim olishga xizmat qilishi kerak. Standartlarga mos bilim esa o‘qituvchining malakasi va kasbiy yondashuvini belgilovchi asosiy mezondir.

Professional bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak - bu o‘qituvchining o‘z fanini chuqur bilishi uni o‘rgatish metodikasini mukammal egallash hamda sinfda samarali dars olib borish qobiliyatidir. Bu bilim va ko‘nikma o‘qituvchining kasbiy mahoratini ko‘rsatadi va ta’lim sifatini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

O‘qituvchi o‘z bilimini o‘quvchilarga tushunarli, qiziqarli va samarali tarzda yetkazish uchun didaktik mahoratga ega bo‘lishi kerak, darsni to‘g‘ri rejalashtirish, darsga mos metodlardan foydalanish, mavzuni tushunarli, aniq tarzda tushuntirish, o‘quvchilarni jalb qilish kabi kasbiy sifatlar o‘qituvchida bo‘lishi lozim. Didaktik mahoratga ega o‘qituvchi har bir darsni samarali tashkil etadi, o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning bilim olish jarayonini osonlashtiradi. Bu mahorat ta’lim jarayonining asosiy omillaridan biridir.

O‘qituvchi ta’lim tarbiya jarayonini puxta tashkil etish, o‘quvchilarga individual yondashish, ularning psixologik holatini his qilish va muloqotni samarali

olib borish uchun pedagogik mahoratga ega bo‘lishi lozim. Bunda faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining shahsini shakllantirish, uni rag‘batlantirish, darsga qiziqtirish va muhitni ijobiy tarzda boshqarish san’atidir. Pedagogik mahoratga ega ustoz har bir o‘quvchini tushuna oladi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi va tarbiya jarayonida yuqori natijaga erishadi.

O‘qituvchi tashkiliy qobiliyatga ham ega bo‘lishi lozim. Bu o‘qituvchini ta’lim jarayonini tartibli, izchil va samarali tashkil eta olish qobiliyatidir. Bu qobiliyat orqali u darsni to‘g‘ri rejalaydi va to‘g‘ri taqsimlaydi, o‘quvchi faoliyatini boshqaradi, hamda sinfda tartib - intizomni taminlaydi. O‘qituvchi ta’limdagi , darsdagi kamchilikni bartaraf etishi va har qanday muammoni chuqur tahlil qilishi, har bir muammoning sababini va oqibatini aniqlashi va asosli xulosa chiqarish uchun analitik fikrlashi lozim. Analitik fikrlash o‘quvchiga doimiy tahlil takomillashtirish va yangicha yondashuvi orqali ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi raqamli texnologiya asrida har bir zamonaviy pedagog darsni innovatsion yondashuv asosida olib borishi, axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanishi ya’ni ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or metod va kreativ g‘oyalarni joriy etish orqali dars samaradorligini oshirishga intilishi lozim va zarur. Bu esa ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, mazmunli va zamon talabi darajasida bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi umumiy maqsadiga erishish uchun o‘zaro tushunish, fikr almashish va qo‘llab - quvvatlash muhitini yaratish uchun muloqot ko‘nikmalariga va jamoaviy ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishi, ya’ni o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali hamkorlikda ishlay olishi lozim. Shuningdek bu qobiliyat o‘quvchida ham o‘zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik ruhini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

O‘qituvchida natijalarga yo‘naltirilganlik qobiliyati bo‘lishi lozim. Bu o‘qituvchining har bir faoliyatini aniq maqsad va kutilmagan natijalarga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday yondashuvda o‘qituvchi nafaqat dars o‘tadi balki o‘quvchini bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. U darsdan kutilayotgan natijalarni oldindan belgilaydi, o‘quvchilarning rivojlanishini doimiy nazorat qiladi va kerak bo‘lsa o‘z metodikasini qayta ko‘rib chiqadi.

Pedagog fanning asoslarini amaliyot bilan uyg‘unlashtira olishi - bu o‘qituvchining nazariy bilimlarini real hayotda va o‘quv jarayonida qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘qituvchi nazariy tushunchalarni o‘quvchilarga faqat nazariy jihatdan emas balki amaliy misollar, tajribalar, ish faoliyati orqali ham yetkaza olishi lozim.

O‘qituvchining nutq madaniyatiga ega bo‘lishi, so‘zlaganda aniq va tushunarli ifodalash, madaniyat va hurmat bilan gapirish qobiliyati ham uning asosiy kasbiy faoliyatlaridan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan o‘qituvchilar dars jarayonini yuqori darajada tashkil etishadi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari ancha yuqori bo‘ladi. [3]

O‘qituvchilarning shahsiy fazilatlari o‘qitish va tarbiya jarayonida asosiy o‘rin tutadi. O‘qituvchining har bir qadami va har bir so‘zi o‘quvchilarga tasir qiladi. Shuning uchun ishtiyoq bilan o‘z kasbini sevishi juda muhimdir.

Uning shahsiy sifatlari ham kasbiy faoliyati kabi muhim va zarurdir. Har bir ishda halol bo‘lish - bu ta’lim jarayonida va hayotda doimo to‘g‘ri, adolatli va shaffof bo‘lishdir. Halollik o‘qituvchining nafaqat o‘z faoliyatida balki o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishida ham katta ahamiyatga ega. Har bir ishda sabr toqatli bo‘lish o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlashda, ularning qiyinchiliklariga, kamchiliklariga sabrli va mehribon bo‘lishidir. Bunday o‘qituvchilar stress va noqulay vaziyatlaga shoshilmasdan muloyimlik bilan yondoshadi, o‘quvchilarga tushuncha berishga, ularning xatolaridan saboq olishiga yordam beradi.

Har bir ishda bag‘rikenglik, mehribonlik va samimiylik o‘quvchilarda ishonchni uyg‘otadi, o‘quvchilarning o‘zini erkin his qilishlariga yordam beradi va o‘qituvchining o‘z o‘quvchilari bilan mustahkam ijobiy munosabat o‘rnatishga xizmat qiladi. O‘z kasbiga, o‘quvchilarning kelajagiga befarq bo‘lmagan o‘qituvchi o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondoshadi. Bu bilan u o‘quvchilarni ham masuliyatli bo‘lishga undaydi.

O‘qitivchilarda empatiya ya’ni o‘quvchilarning his tuyg‘ularini, holatini tushunish, ularning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘ra olish va shu bilan birga ularning muammolarini tushunish, ularga e’tibor ko‘rsatish va g‘amho‘rlik qilish juda muhim sanaladi.

O‘qituvchi har bir o‘quvchining salohiyatiga ishonadi, ularni rag‘batlantiradi va xatolardan qo‘rqmaslikka undab, ularni muvaffaqqiyat sari yetaklaydi. Bu esa o‘quvchi uchun birinchi darajali motivatsiyalardan biri hisoblanadi. Chunki o‘quvchi yon-atrofdagilardan, ota-onasidan va ayniqsa o‘zining sevimli ustozidan maqtov eshitsa va uni qo‘llab quvvatlaganini ko‘rsa o‘zini qadrli, e’tiborga loyiq his etadi va o‘qishga bo‘lgan salohiyati yanada ortadi

Psixologlarning fikriga ko‘ra o‘qituvchining mehribon, tushunadigan, ochiq shaxs bo‘lishi o‘quvchilarda ishonch hissini uyg‘otadi bu esa ta’lim jarayonining ijobiy kechishiga olib keladi.[4]

„Sizlar dunyodagi eng bebaho boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yo‘lida chinakam fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilayotgan ulug‘ insonlarsiz’’[5] - deydi muhtaram prezidentimiz.

Darhaqiqat o‘qituvchi shunchaki dars beruvchi emas balki taaqqiyot uchun xizmat qiluvchi eng muhim insonlardan biridir, uning kasbiy malakasi va shahsiy fazilatlari qancha yuksak bo‘lsa ta’lim sifati, yosh avlodning kelajakka bo‘lgan ishonchi va yurt istiqboli ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Zamonaviy o‘qituvchi - bu faqatgina ta’lim beruvchi emas balki tarbiyachi, psixolog, kommunikator va ijtimoiy namuna bo‘la oluvchi shahsdir. Uning kasbiy malakasi va shahsiy fazilatlari uyg‘un holda namoyon bo‘lsa, bu holat o‘quvchilarning bilim olishga, mustaqil fikrlashga va jamiyatga foydali shahs bo‘lib shakllanishiga kuchli tasir ko‘rsatadi. Shu bois pedagog kadrlar tayyorlashda nafaqat nazariy bilim balki kasbiy etika, axloqiy tarbiyani ham birdek muhim deb hisoblash lozim.

Foydalanilgan abiyotlar:

1. Qodirov A „ Zamonaviy o‘qituvchi kompetensiyalari ``- Toshkent,2022.
2. Shodmonov N „Pedagogik mahorat asoslari`` - Samarqand, 2021.

3. To‘xtasinova D ,,Pedagogik psixologiya`` - Andijon, 2023.